



## 5-7 YOSHLI BOLALARDА TADQIQIY BILISH VA SAMARALI REFLEKSIV FAOLIYATINI TASHKIL QILISH

*Cho'ponqulova Sitora Bozor qizi - DTPI Maktabgacha ta'lism yo'nalishi  
2-bosqich talabasi*

*Umirzoqova Gulshoda Obiddin qizi- DTPI Maktabgacha ta'lism yo'nalishi  
2-bosqich talabasi*

*Ubaydullayeva Shohista Hidoyatillo qizi- Termiz agrotexnologiyalar va  
innovatsion rivojlanish instituti 1-bosqich talabasi*

**Anatatsiya:** Maktabgacha yoshdagи bolalarni tadqiqiy bilish va samarali faoliyatini tashkil etishda bolani mакtabga tayyorlashda jismoniy, shaxsiy (ruxiy), aqliy, maxsus tayyorgarliklarni shakillantirish masalasi keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** refleksiv, aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivolanish, ekskursiyalar, ruhiy fiziologik xususiyatlar.

Xususan, maktabgacha ta'lism tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi.

Prezidentning 2017 yil 30 sentabrdagi —Maktabgacha ta'lism tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni hamda —O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lism vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi.

Yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta'lism sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lism tashkilotlarilarini davlat va nodavlat tarmog'ni kengaytirish va moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lism tashkilotlarilariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lism-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lism dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga taylorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi.



O'zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta'lismi to'g'risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'lismi uyda, ota-onalarning mustaqil ta'lismi berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lismi tashkilotlarilarida, shuningdek maktabgacha ta'lismi tashkilotlarilariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta'lismi tashkilotlarilarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi.

5-6 yoshli bolaning maktab ta'limga yetukligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lism-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish – bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'prik vazifasini o'tashini, oila yoki maktabgacha ta'lismi tashkilotdagi ta'lism-tarbiya sharoitlarida maktab ta'limga ozorsiz o'tkazishni ta'minlash zarurligini hisobga olishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani uydayoq maktab ta'limga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'limgan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi.

Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra «Maktabga tayyorgarlik» tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini jismoniy, shaxsiy (ruxiy), aqliy, maxsus tayyorgarliklarni o'z ichiga oladi.

Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivolanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'liming yangi sharoitlariga va o'quv materialining ongli yegallahsga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi.

Bolani maktabga maxsus ravishda tayorligi maktabda o'qishga umumiy psixologik tayyorligiga qo'shimchadir. U bolada matematika va ona tili kabi o'quv fanlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. Maktabgacha ta'lismi tashkilotida mashg'ulotlar bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Bu mashg'ulotlarda bolalar o'quv faoliyati ko'nikmalari xosil qiladilar, ancha intizomli, uyushgan bo'lib boradilar. Ularda barqaror diqqat, diqqatni bir



narsaga qarata olish, irodaviy zo'r berish qobiliyati rivojlanadi. Sistemali o'qish natijasida bilishga qiziqish paydo bo'ladi.

Bolalarni jamoada o'qitish muayyan afzalliklarga ega. Birgalikda ishda ular birlariga aktiv ta'sir etadilar, tashabbus, faxm-farosat ko'rsatish imkoniga ega bo'ladilar. Bolalar oldilariga ko'pchilikdan kuch-g'ayrat talab qiladigan vazifalar qo'yilganda birgalikdagi kechinmalar paydo buladi, kollektivizm tuygusi vujudga keladi. Ekskursiyalar, rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, qurish yasashga oid ishlarni birgalikda bajarish, umumiylardan o'yinlarda va musiqa mashg'ulotlardagi raqlarda, harakatlarni rivojlantirish mashg'ulotlarida birlashish, badiiy adabiyotni o'qish tufayli yuzaga kelgan birgalikdagi kechinmalar – bularning hammasi inoq bolalar jamoasini vujudga keltirishda yordam beradi xamda, jamoada yashash va ishslash ko'nikmasi hosil o'qiladi.

Mashg'ulotlardagi o'qitish jarayonida bolalarda maktabga va o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, to'g'ri va xulk-atvor ko'nikmalari, ma'suliyat xissi, ishchanlik, o'zini tutab ilish, ishda zo'r berish odati hosil qilinadi. Bolalarga kerakli bilim va malakalarni mashg'ulot jarayonida, yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod usullaridan foydalanilsa, bolani yosh, ruxiy fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, tarbiya berishning samaradorligi oshadi.

Bolalar mashg'ulotlarni turli xil ko'rinishlarini yegallashlari orqali, yoshlari o'sib borish davomida, maktabga bo'lgan qiziqishlari ham o'sib rivojlanib boradi. Va ular maktabni ham hech qynalmay o'qib, davom yettirib boradilar.

Maktabga aqliy taylorlikning muhim tarkibiy qismi maktabga o'qishga kirayotgan bolada atrof dunyo haqida yetarlicha keng bilish boyligining mavjud bo'lishidir. Bolani maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiy qismi bola bilish faoliyatini muayan darajada rivojlangan bo'lishi kerak.

5-7 yoshli bolalarni aqliy jihatdan rivojlantirish yetarli bo'lishini ta'minlash tarbiyachidan katta mas'uliyatni talab yetadi. Maktabgacha ta'lim yoshida bilishi tez sur'atda rivojlanib boradi, boyib boradi. Nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola yeng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so'ng mashg'ulotlar, bilim berish orqali amalga oshiriladi.



5 -7 yoshlilarda tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyatini tashkil qilish orqali ularning aqliy rivojlanishi takomillashtiriladi hamda maktab ta'limga tayyorgarligi oshib boradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr lex.uz
2. Bola taraqqiyotini psixologik tashxis qilish (foydalanuvchiga ko’rsatma va kartochkalar majmui). R.I.Sunnatova, N.G.Irgashovatahrirlari ostida-Moskva-Toshkent:ITD<<SMI-AZIYA>>--san’atjurnali, 2008-156 b
3. Mehri Norbosheva Maktabgacha ta’limda psixodiagnostika Termiz 2015-yil